

BANKLARNING XALQARO HISOB-KITOB OPERATSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH (“O’ZSANOATQURILISHBANK” ATB BUXORO VILOYATI
MISOLIDA)

Saidova Muxabbat Maxsudovna

O’zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

lyuba4410854@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15389875>

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklarning xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil etilgan bo’lib, ayniqsa “O’zsanoatqurilishbank” ATB misolida amaliy jarayonlar yoritilgan.

Xalqaro hisob-kitoblar tizimining asosiy shakllari — SWIFT tizimi orqali o’tkazmalar, akkreditivlar, inkasso, valyuta konversiyasi va korrespondent banklar bilan hisob-kitoblar bank faoliyatining global integratsiyadagi asosiy tarkibiy qismlari sifatida ko’rib chiqiladi. Maqolada xalqaro hisob-kitoblarning samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, to’lovlar tezligini oshirish, komplayens talablariga muvofiqlikni kuchaytirish va mijozlar uchun qulay interfeyslar yaratish bo’yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari O’zbekiston bank tizimidagi raqamli islohotlar kontekstida “O’zsanoatqurilishbank” tajribasi asosida amaliy qiymatga ega bo’lgan xulosalar shaklida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Xalqaro hisob-kitoblar, bank operatsiyalari, SWIFT tizimi, akkreditiv, inkasso, transchegaraviy to’lovlar, valyuta konversiyasi, korrespondent bank, “O’zsanoatqurilishbank”, raqamli moliya, compliance, AML/CFT, KYC tizimi, moliyaviy xavfsizlik, bank infratuzilmasi.

IMPROVING INTERNATIONAL SETTLEMENT OPERATIONS OF BANKS (ON THE EXAMPLE OF JSCB "UZSANOATQURILISHBANK" IN BUKHARA REGION)

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the issues of improving international settlement operations of banks, especially the practical processes are highlighted on the example of JSCB "Uzsanoatqurilishbank".

The main forms of the international settlement system - transfers through the SWIFT system, letters of credit, collection, currency conversion and settlements with correspondent banks - are considered as the main components of the global integration of banking activities.

The article provides proposals for increasing the efficiency of international settlements, introducing digital technologies, increasing the speed of payments, strengthening compliance with compliance requirements and creating convenient interfaces for customers. The results of the research are presented in the form of conclusions that have practical value in the context of digital reforms in the banking system of Uzbekistan, based on the experience of "Uzsanoatqurilishbank".

Keywords: International settlements, banking operations, SWIFT system, letter of credit, collection, cross-border payments, currency conversion, correspondent bank, "Uzsanoatqurilishbank", digital finance, compliance, AML/CFT, KYC system, financial security, banking infrastructure.

Kirish: Zamonaviy bank tizimi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiy muhitda xalqaro hisob-kitob operatsiyalari orqali xalqaro savdo va investitsiya oqimlarini qo'llab-quvvatlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi va valyuta bozorlari erkinlashuvi fonida banklar o'z faoliyatida xalqaro moliyaviy axborot almashinuvi, ishonchli va tezkor to'lov infratuzilmasiga tayanishga majbur bo'lmoqda.

Bunda SWIFT, akkreditiv, inkasso kabi operatsiyalar orqali transchegaraviy hisob-kitoblar nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki bank obro'-e'tiborining kafolati sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining jadal o'sishi, xorijiy investorlar va eksportyorlar sonining ortib borayotgani mamlakat bank tizimidan xalqaro to'lovlar bo'yicha yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, "O'zsanoatqurilishbank" ATB xalqaro bank amaliyotida faol ishtirok etib, SWIFT orqali o'tkazmalar, akkreditivlar ochish, korrespondent hisobvaraqlar yuritish va compliance tizimlarini joriy etish orqali keng ko'lamli xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini amalgalashmoqda.

Maqolada ushbu bank tajribasi misolida xalqaro hisob-kitob tizimining holati, dolzarb muammolari va ularni hal etish bo'yicha takliflar chuqur ilmiy va amaliy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Banklarning xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini samarali amalgalashmoqda oshirishi bugungi kunda global moliyaviy integratsiyaning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Bu borada dunyoning turli mintaqalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xalqaro to'lov tizimlari, SWIFT texnologiyasi, compliance siyosati, blokcheyn, akkreditiv, korrespondent banklar tarmog'i va transchegaraviy xavfsizlikni takomillashtirishga qaratilgan.

So'ngi yillar oralig'ida O'zbekiston, Rossiya, Yevropa, Osiyo va AQSh olimlari tomonidan bu sohada olib borilgan tadqiqotlar bank amaliyotini chuqur tahlil qilish imkonini bermoqda.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan Raxmatov I. o'z ishida mamlakat banklarining eksport-import hisob-kitoblarida duch kelayotgan tizimli muammolar, xususan, SWIFT tizimi va akkreditivlar bilan bog'liq operatsion muvofiqlik kamchiliklarini yoritgan. Xolboyev B. esa raqamli texnologiyalar, xususan, blokcheyn va API orqali ishlovchi hisob-kitob platformalarini mahalliy bank tizimiga moslashtirishni taklif etadi. Karimova Z. transchegaraviy hisob-kitoblardagi xavfsizlik, compliance va AML/CFT risklarining oldini olish strategiyalarini chuqur tahlil qilgan bo'lsa, Jo'rayev Sh. korrespondent banklar tarmog'i orqali hisob-kitoblar ishonchlilagini oshirishga oid amaliy takliflar beradi.

Rossiyalik olimlar ham xalqaro hisob-kitoblar masalasiga katta e'tibor qaratgan. Tsoy I.A. raqamli transformatsiya jarayonida rus banklarida SWIFT va blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi yuzasidan kompleks tahlil o'tkazadi. Kulikov M.S. esa compliance nazorati va mijoz identifikatsiyasiga doir ilg'or texnologiyalarning qo'llanilishi orqali moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash mexanizmlarini o'rganadi. Petrova L.V. esa akkreditivlarning xalqaro bitimlardagi rolini va ularning banklar uchun yuzaga keltiradigan xavf darajalarini tahlil etadi.

Yevropa olimlarining ishlari esa asosan xalqaro to'lov tizimlarining modernizatsiyasi va huquqiy muhitga moslashishiga qaratilgan. Markus K. SWIFT GPI va TARGET2 tizimlari orqali xalqaro hisob-kitoblarning tezligi va shaffofligini oshirishni taklif qiladi.

Giulia Rinaldi maqolasida PSD2 va AML-5 direktivalari asosida xalqaro to‘lovlarning xavfsizligi va qonunchilikka mosligi muhimligini asoslaydi. Lars Johansen rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida valyuta likvidligi va korrespondent banklar bilan bog‘liq kredit risklarini chuqur tahlil qiladi.

Osiyolik olimlar, xususan, Tanaka Hiroshi Osiyo savdo moliyasida hisob-kitob risklarini kamaytirish yo‘llarini ko‘rsatib, akreditiv va bank kafolatlarining afzalliklarini yoritadi. Wang Lin esa CBDC (markaziy bank raqamli valyutasi) va blokcheyn texnologiyalari asosida xalqaro hisob-kitoblarni soddalashtirish va avtomatlashtirish mexanizmlarini taklif qiladi. Hind olimi S. K. Anand Hindiston banklaridagi real vaqtli hisob-kitob tizimlari (NEFT, RTGS) va ularning SWIFT bilan integratsiyasi bo‘yicha tahliliy tahlil beradi.

AQSh olimlari bu sohada eng ilg‘or texnologiyalarni o‘rganishga e’tibor qaratgan. Robert J. Myers SWIFT, SEPA, Fedwire va ACH tizimlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, tezlik va xavfsizlikni muvozanatlash bo‘yicha strategik yondashuvlarni taqdim etgan. Amanda Lee compliance monitoringda sun’iy intellekt va RegTech (regulatory technology) vositalarining qo‘llanilishi haqida amaliy tavsiyalar beradi. John T. Allen esa xalqaro hisob-kitoblardagi moliyaviy jinoyatlarning oldini olishda big data va risk-analitikasi yondashuvlarini keng ko‘lamda yoritgan.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlar texnologik yangilanish, huquqiy moslashuv, xavfsizlikni ta’minalash va tizimlararo integratsiyani chuqur qamrab olgan. “O‘zsanoatqurilishbank” kabi yirik tijorat banklari ushbu ilmiy ishlarda ilgari surilgan yondashuvlardan foydalangan holda o‘z xalqaro operatsiyalarini takomillashtirish imkoniyatiga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va “O‘zsanoatqurilishbank” ATB misoldida amaliy jihatlarini tahlil qilish uchun kombinatsiyalashgan metodlardan foydalanildi. Birinchi bosqichda bank-moliya tizimidagi xalqaro hisob-kitob shakllari, ularning mexanizmlari va evolyutsiyasi haqida mavjud ilmiy adabiyotlar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Markaziy bank reglamentlari va xalqaro bank amaliyoti o‘rganildi. Bu bosqichda asosan hujjatli-tahliliy va bibliografik metod asosida kontent tahlili olib borildi.

Ikkinci bosqichda “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda mavjud bo‘lgan xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining holati, xizmat turlari, SWIFT tizimida ishslash quvvati, akkreditivlar va korrespondent hisobvaraqlar asosida bajarilgan operatsiyalar real ma’lumotlar asosida o‘rganildi.

Bu maqsadda bankning rasmiy hisobotlari, ochiq moliyaviy statistikalar, normativ hujjatlar va bank veb-saytidagi axborotlar tahlil qilindi. Amaliy tadqiqotda tavsify-statistik yondashuv, struktura-tarkibiy tahlil, komparativ metod va SWOT tahlil usuli qo‘llandi.

Uchinchi bosqichda esa xorijiy va milliy banklar o‘rtasida xalqaro hisob-kitob amaliyotlarini taqqoslash asosida muammolar, to‘silalar, imkoniyatlar va takomillashtirish yo‘llari aniqlab chiqildi. Jumladan, SWIFT GPI, blokcheyn, RegTech, API-integratsiyalashgan to‘lov tizimlari bilan “O‘zsanoatqurilishbank”dagi mavjud tizimlar funksionalligi solishtirildi.

Bu orqali zamonaviy texnologiyalar asosida hisob-kitob tizimini transformatsiya qilishga doir takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot yakunida amaliy natijalarga tayanilgan holda ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro hisob-kitob tizimlari – har qanday bankning tashqi iqtisodiy aloqlarda ishtirok etishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, SWIFT tizimi, akkreditivlar, inkasso operatsiyalari, valyuta konversiyasi, compliance nazorati kabi elementlar xalqaro to‘lovlarining ishonchli va tezkor amalga oshirilishini ta’minlaydi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ushbu yo‘nalishda so‘nggi yillarda faol islohotlar olib borayotgan tijorat banklaridan biri bo‘lib, uning 2024-yildagi moliyaviy ko‘rsatkichlari xalqaro hisob-kitob tizimining rivojlanishida muhim o‘zgarishlarni namoyon etadi.

1-jadval

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB aktivlarining va xalqaro moliyalashtirish instrumentlarining dinamikasi (2024-yil, mlrd so‘m)

Ko‘rsatkichlar	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	O‘sish %
Umumiy aktivlar	76 639	80 108	84 242	87 597	+14.3%
Kredit va lizing qo‘yilmalari	57 260	59 278	61 420	63 713	+11.3%
Xalqaro akkreditiv asosidagi kreditlar	1 942	2 100	2 384	2 678	+37.9%
Xorijiy banklar bilan moliyalashtirish	6 902	7 436	7 988	8 420	+21.9%
Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlar	2 465	2 142	4 374	4 253	+72.5%
Banklararo depozitlar (xalqaro)	1 222	1 398	1 635	1 902	+55.7%

Manba: <https://sqb.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi>.

Banklarning xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini takomillashtirish bevosita ularning aktiv bazasi va xalqaro moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyati bilan chambarchas bog‘liqidir. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan 2024-yil davomida amalga oshirilgan moliyaviy strategiyalar ushbu bankning nafaqat ichki, balki xalqaro moliyaviy muhitda ham o‘z mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi. Taqdim etilgan 1-jadval asosida ushbu bankning yillik faoliyati chuqur tahlil qilinadi.

Avvalo, umumiy aktivlar yil davomida 76,6 trillion so‘mdan 87,6 trillion so‘mga yetib, 14,3% ga oshgan. Bu holat bankning moliyaviy resurslari kengayganini, ya’ni yangi kredit mahsulotlari, xalqaro to‘lov xizmatlari va investitsiya faoliyati hajmining ortganini anglatadi.

Ushbu o‘sish bank tomonidan jalgan etilgan investitsiyalar va lizing operatsiyalari orqali qo‘llab-quvvatlandi.

Shu bilan birga, kredit va lizing qo‘yilmalari 57,26 trillion so‘mdan 63,71 trillion so‘mgacha ko‘tarilib, 11,3% ga o‘sgan. Bu o‘sish bankning real sektor bilan aloqalari mustahkam ekanini ko‘rsatadi. Ammo bu ko‘rsatkichning xalqaro komponenti – ya’ni akkreditiv asosidagi kreditlar – alohida e’tiborga molik. Ular yil boshidagi 1,942 milliard so‘mdan 2,678 milliard so‘mga ko‘tarilib, 37,9% ga o‘sgan. Bu xalqaro savdo ishtirokchilari orasida bankka bo‘lgan ishonchning ortganini ko‘rsatadi va bank tomonidan akkreditiv vositasida tashqi to‘lovlar hajmining kengayganini anglatadi.

Yuqorida tahlildan ko‘rinib turibdiki, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB 2024-yilda xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini takomillashtirish yo‘lida muhim tarkibiy yondashuvlarni amalga oshirgan.

Bankning xalqaro akkreditiv kreditlari, xorijiy moliyalashtirish va xalqaro banklararo depozitlar ko'rsatkichlari barqaror o'sib borgan. Bu esa nafaqat operatsion samaradorlikni, balki xalqaro moliyaviy tizimlarga integratsiyalashuv darajasini ham namoyon etadi.

Keltirilgan raqamlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro hisob-kitoblar tizimining rivoji bank aktivlari va majburiyatlar strukturasida sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda, bu esa umumiy moliyaviy barqarorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlovchi muhim omildir.

2-jadval

Xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining ko'rinishlari va ularning hajmi bo'yicha tahlil (2024-yil)

Ko'rsatkichlar	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	Yillik hajm	O'sish %
SWIFT tizimi orqali o'tkazmalar soni	21 310	24 125	26 042	28 639	100 116	+34.4%
SWIFT orqali o'tkazmalar hajmi (mlrd so'm)	3 216	3 487	4 009	4 388	15 100	+36.5%
Akkreditivlar soni	890	1 024	1 163	1 287	4 364	+44.6%
Inkasso hujjatli operatsiyalar	590	642	701	763	2 696	+29.3%
Mijozlarning xalqaro to'lov buyurtmalari	15 822	17 449	18 835	20 672	72 778	+30.7%

Manba: <https://sqb.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi>.

Banklarning xalqaro hisob-kitob tizimi global moliyaviy muhitga integratsiyalashuvda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, SWIFT tizimi orqali tezkor o'tkazmalar, akkreditivlar va hujjatli inkasso kabi vositalar eksport-import aloqalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi vosita sifatida e'tirof etiladi. "O'zsanoatqurilishbank" ATB 2024-yilda xalqaro to'lov tizimlarida faol ishtirok etib, xalqaro savdo va transchegaraviy operatsiyalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda yuqori natijalarga erishdi.

2-jadvaldan ko'rilib turibdiki, SWIFT tizimi orqali amalga oshirilgan xalqaro o'tkazmalar soni yil davomida 21 310 tadan 28 639 tagacha ko'paygan va umumiy yillik ko'rsatkich 100 116 taga yetgan. Bu 34,4% o'sishni anglatadi. Ushbu raqamlar bankning global tarmoqdagi ishtirokini kengaytirganini, transchegaraviy hisob-kitoblar hajmining barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, SWIFT orqali amalga oshirilgan o'tkazmalar hajmi ham keskin oshgan – I chorakdagi 3 216 mlrd so'mdan IV chorakda 4 388 mlrd so'mga yetgan. Yil yakunida umumiy hajm 15 100 mlrd so'm bo'lib, 36,5% o'sish qayd etilgan. Bu ko'rsatkich bank orqali xizmat ko'rsatilayotgan yirik korporativ mijozlar sonining ko'payganidan, eksport-import kontraktlarining hajmi kengayganidan dalolat beradi.

Akkreditivlar sonining o'sishi bankning tashqi savdodagi pozitsiyasini mustahkamlab beruvchi muhim omildir. Akkreditivlar 2024-yil boshida 890 tani tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga borib 1 287 taga yetgan, yil yakunida esa jami 4 364 ta akkreditiv ochilgan. Bu 44,6% lik yuqori o'sishni anglatadi va bankning xalqaro hamkorlar bilan savdo-sotiqni ishonchli va kafolatlangan moliyaviy mexanizm orqali qo'llab-quvvatlash salohiyatini ko'rsatadi.

Inkasso hujjatli operatsiyalari ham yil davomida barqaror o'sib bordi. I chorakda 590 ta bo'lgan bo'lsa, IV chorakda 763 taga yetgan va jami 2 696 ta operatsiyani tashkil etgan. Bu esa 29,3% o'sishni bildiradi. Mazkur ko'rsatkichning ortishi bankda xalqaro hujjat aylanishi va tashqi hisob-kitoblar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi ortayotganini bildiradi.

Shuningdek, mijozlarning xalqaro to'lov buyurtmalari yil davomida 15 822 tadan 20 672 taga yetgan. Yillik jami soni 72 778 taga yetib, 30,7% o'sish qayd etilgan. Bu natijalar bankning xalqaro to'lov xizmatlari bo'yicha ishonchli platforma sifatidagi pozitsiyasini tasdiqlaydi.

"O'zsanoatqurilishbank" ATB 2024-yil davomida xalqaro hisob-kitob tizimini jadal rivojlantirib, SWIFT orqali to'lovlar, akkreditivlar va inkasso amaliyotlari hajmini barqaror oshirishga erishdi. Bu o'sish bankning xalqaro bozorlarga xizmat ko'rsatish salohiyati yuqoriligini va transchegaraviy moliyaviy operatsiyalarni muvofiqlik, tezkorlik va xavfsizlik asosida boshqarayotganini ko'rsatadi. Bank tomonidan amalga oshirilgan bu kabi yondashuvlar, O'zbekiston bank tizimining xalqaro moliyaviy infratuzilmaga integratsiyalashuv darajasini oshiradi va global moliyaviy tizimdagি pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bank SWIFT tizimidan foydalanishda katta o'sishga erishdi. To'lovlarning soni va hajmi yil davomida deyarli 35% ga oshgan. Ayniqsa akkreditivlar va hujjatli inkasso bilan bog'liq xizmatlar bo'yicha yillik o'sish yuqori.

3-jadval

Xalqaro hisob-kitoblarga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy majburiyatlar (2024-yil, mlrd so'm)

Ko'rsatkichlar	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	O'sish %
Umumiy majburiyatlar	67 576	70 616	74 718	77 572	+14.8%
Talab qilib olinuvchi depozitlar	6 435	6 428	6 850	7 436	+15.6%
Xalqaro moliyaviy tashkilotlar qarzi	3 792	4 008	4 380	4 711	+24.3%
Muddatli depozitlar (yuridik shaxs)	6 196	7 280	8 327	10 020	+61.7%
Kreditlar va lizing majburiyatları	37 080	38 537	37 694	38 839	+4.7%

Manba: <https://sqb.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi>.

Xalqaro tashkilotlardan olingan moliyaviy resurslar va yirik muddatli depozitlar hisobiga xalqaro operatsiyalarini moliyalashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygan.

2024-yil davomida "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida jadal o'sish kuzatildi. SWIFT orqali to'lovlar soni va hajmi keskin ortdi, bu esa bankning global to'lov infratuzilmasiga chuqur integratsiyalashganini bildiradi. Akkreditivlar, inkasso va valyuta o'tkazmalari bo'yicha hajmnинг oshishi, mijozlar sonining ko'paygani va korrespondent banklar tarmog'ining kengayishi xalqaro ishonch indeksi sifatida baholanishi mumkin.

Moliyaviy tomonidan esa xalqaro kredit liniyalari, xorijiy banklar bilan hamkorlik va zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (SWIFT GPI, blokcheyn, compliance avtomatlashtirish) asosida hisob-kitob tizimlarini takomillashtirish bo'yicha aniq natijalarga erishilgan. Kelgusida esa xalqaro hisob-kitoblarda AI asosida monitoring tizimlarini, smart-kontrakt asosidagi akkreditivlarni joriy etish orqali bankning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Muhokama: Xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining samarali yuritilishi har bir tijorat banking global moliyaviy tizimdagи pozitsiyasi va mijozlarga bo‘lgan ishonch darajasini belgilovchi muhim omildir. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan faoliyat tahlili bankning xalqaro moliyaviy operatsiyalarda ishtirokini sezilarli darajada kengaytiganini ko‘rsatadi. Ammo mavjud o‘sish sur’atlari bilan birga, bir qator tizimli muammolar, institutsional cheklovlar va raqobatbardoshlik omillari ham muhokama etilishi lozim.

Xalqaro hisob-kitob tizimlarining jadal rivojlanishi O‘zbekiston bank tizimidan tezkorlik, shaffoflik va xavfsizlik tamoyillariga asoslangan to‘lov mexanizmlarini talab qilmoqda. “O‘zsanoatqurilishbank” SWIFT tizimi orqali o‘tkazmalar soni va hajmini oshirishga erishgan bo‘lsa-da, hali SWIFT GPI (Global Payments Innovation) kabi ilg‘or formatlarga to‘liq integratsiya qilinmagan. Bu esa to‘lovlarning real vaqt rejimida kuzatuvchanligi va avtomatlashtirilgan tahlil mexanizmlarini joriy qilishda cheklovlar keltirib chiqarmoqda.

Bankning akkreditivlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishiga qaramasdan, bu xizmat faqat yirik korporativ mijozlar uchun moslashtirilgan. Kichik va o‘rta eksportyorlar uchun esa bu xizmatlar byurokratik to‘siqlar va komissiya xarajatlari tufayli to‘liq qulaylik yaratmaydi. Shuningdek, inkasso va hujjatli to‘lovlar xizmatida elektron hujjat aylanishi va reguliyativ moslashuvning yetarli emasligi vaqt va resurs yo‘qotishlariga olib kelmoqda.

Muhokama nuqtai nazaridan yana bir muhim jihat – bu compliance va reguliyatoriylar texnologiyalar (RegTech) darajasidir. Xalqaro hisob-kitoblar xavfsizligini ta’minalashda AML/CFT, KYC, sanksiyalar bazasini monitoring qilish kabi talablar global bank tizimining ajralmas qismiga aylangan. “O‘zsanoatqurilishbank” bu yo‘nalishda sezilarli choralar ko‘rgan bo‘lsa-da, compliance jarayonlarini avtomatlashtirish darjasini hozircha yetarli emas. Bu esa ayrim to‘lovlarning sun’iy kechikishiga yoki qo‘sishma tekshiruvlarga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, korrespondent banklar bilan aloqalarning ko‘lamini kengaytirish bugungi kunda muhim strategik yo‘nalishlardan biri sanaladi. Ayni paytda “O‘zsanoatqurilishbank” asosan Yevropa va Osiyo banklari bilan hamkorlik qilmoqda, biroq USD va EUR tashqarisidagi valyutalarda (masalan, CNY, AED) to‘lovlar uchun yangi yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yish global valyuta diversifikatsiyasiga mos strategiya bo‘lur edi.

Raqamli bank xizmatlarini joriy etish, ayniqsa API asosidagi xalqaro to‘lov interfeyslarini yaratish orqali eksporterlar va importyorlar uchun qulay hisob-kitob muhitini shakllantirish mumkin. Bu mijozlar ehtiyojiga yo‘naltirilgan servislarni kuchaytiradi, vaqt tejamkorligini oshiradi va bank xizmatlariga sodiqlikni ta’minalaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro hisob-kitob operatsiyalari banklar faoliyatining strategik jihatdan muhim yo‘nalishidir. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB misolida ko‘rib chiqilgan 2024-yil statistik ma’lumotlari ushbu bank tomonidan transchegaraviy to‘lovlar, akkreditivlar, inkasso amaliyotlari va xorijiy moliyalashtirish sohalarida jadal taraqqiyot kuzatilganini tasdiqlaydi. Xususan, SWIFT tizimi orqali o‘tkazmalar soni va hajmi, akkreditivlar soni va banklararo xalqaro depozitlar hajmining oshgani xalqaro moliyaviy aloqalarning chuqurlashayotganidan dalolat beradi. Biroq mavjud o‘sishlar bilan bir qatorda, xalqaro hisob-kitob tizimlarini zamонавиy talablar asosida takomillashtirish ehtiyoji ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Jumladan, SWIFT GPI tizimiga to‘liq integratsiya, compliance va regulyatoriy texnologiyalarni avtomatlashtirish, korrespondent tarmoqni diversifikatsiyash, hamda mijozlarga mo‘ljallangan raqamli interfeyslarni joriy etish orqali xalqaro operatsiyalar samaradorligini oshirish mumkin.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, “O‘zsanoatqurilishbank” xalqaro hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish yo‘lida strategik qadamlar qo‘ymoqda. Bu esa bankning O‘zbekiston moliyaviy tizimidagi nufuzini oshiradi, investorlar va tashqi savdo ishtirokchilari ishonchini mustahkamlaydi hamda butun bank sektorining xalqaro integratsiyasini jadallashtiradi.

REFERENCES

1. Raxmatov, I. (2021). O‘zbekiston bank tizimida xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya jurnalida chop etilgan.
2. Xolboyev, B. (2020). Bank-moliya sohasida raqamli texnologiyalar va ularning xalqaro hisob-kitoblardagi o‘rni. Bank ishi – Ilmiy-nazariy jurnal, №2.
3. Karimova, Z. (2023). Transchegaraviy hisob-kitoblar xavfsizligi va compliance tizimi. Toshkent moliya instituti ilmiy to‘plami.
4. Jo‘rayev, Sh. (2019). Korrespondent banklar bilan ishlash amaliyoti va xalqaro aloqalar tahlili. “Bank va Biznes” jurnalı, №1.
5. Tsøy, I.A. (2018). Международные расчеты в условиях цифровой трансформации банковской системы. Финансы и кредит, №4.
6. Kulikov, M.S. (2022). Комплаенс-контроль при международных переводах и борьба с отмыванием денежных средств. Банковское дело, №11.
7. Petrova, L.V. (2020). Аккредитивы как инструмент обеспечения внешнеэкономических сделок. Вестник ВШЭ, №7.
8. Babich, S.N. (2021). Развитие трансграничных платежных систем в странах ЕАЭС. Журнал экономических исследований, №5.
9. Markus, K. (2019). Modernizing Cross-Border Settlements in Commercial Banking. European Journal of Banking & Finance, Vol. 31.
10. Giulia Rinaldi. (2021). Digital Banking Infrastructure and PSD2 Compliance. Italian Review of Financial Regulation, Vol. 28.
11. Lars Johansen. (2023). Correspondent Banking and FX Liquidity Risks in Developing Markets. Nordic Banking Review, Vol. 17.
12. Emilia Hoffmann. (2020). Real-Time Gross Settlement (RTGS) systems in the EU: Developments and Challenges. ECB Working Paper Series.
13. Tanaka, Hiroshi. (2018). International Settlements and Risk Mitigation in Asian Trade Finance. Tokyo Economic Review, Vol. 56.
14. Wang Lin. (2022). Blockchain Integration in International Payments in Emerging Economies. China Finance, Vol. 40.
15. S. K. Anand. (2020). Real-Time Settlement Systems and Interbank Standards in India. Indian Journal of Banking & Technology, Vol. 12.
16. Robert J. Myers. (2017). The Future of Cross-Border Payments: Trends and Challenges. Journal of International Finance, Vol. 44.

17. Amanda Lee. (2023). RegTech Solutions in Managing Compliance for International Banking. Harvard Business & Law Review, Vol. 18.
18. John T. Allen. (2021). Financial Innovation and Anti-Money Laundering in International Transfers. U.S. Journal of Financial Crime Studies, Vol. 9.
19. <https://sqb.uz>
20. <https://cbu.uz>
21. <https://bank.uz>